

**TA'LIM TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

Qudratov Anvarmirzo Murodillaevich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi
direktorining iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo'yicha o'rinbosari

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimiida amalga oshirilayotgan islohatlar, ta'lim tizimidagi o'rganilayotgan tahliliy vazifalar, ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, innovatsion, jarayon, vazifa, islohat, takomillashtirish, texnologiya, uslub, metodika, metodologiya, strategiya, istiqbol, mexanizm, infratuzilma.

Аннотация: В данной статье говорится обсуждаются реформы, реализуемые в системе образования, изучаемые аналитические задачи в системе образования, инновации, внедряемые в образовательный процесс, значение инновационных технологий, используемых в устойчивом развитии системы образования.

Ключевые слова: образование, обучение, инновационный, процесс, задача, реформа, совершенствование, технология, метод, методология, методология, стратегия, перспектива, механизм, инфраструктура.

Abstract: In this article, the reforms implemented in the education system, the analytical tasks being studied in the education system, the innovations implemented in the educational process, the importance of innovative technologies used in the sustainable development of the education system are discussed in this article. is spoken.

Key words: education, training, innovative, process, task, reform, improvement, technology, method, methodology, methodology, strategy, perspective, mechanism, infrastructure.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jarayonlar ta'lim tizimi sifatini oshirish, sohani innovatsion rivojlantirish, unda ilmiy va texnologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan ilmiy soha va ta'lim tizimi innovatsion faoliyatning asosiy poydevori sifatida rivojlantirilmogda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiyekspirimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [1] ko'zda tutilgan. - 88 - Ta'lim tizimi barqaror rivojlantirish, zamonaviy innovatsion dunyoqarashga ega bo'lgan ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarda namoyon bo'lmoqda. "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik"[2]. Ta'lim tizimi o'zining butun jarayonlari davrida texnologik

ilmiy –amaliy anjuman

ishlarning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq tizimini izlash bilan rivojlanib boradi. Yillar davomida rivojlanib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayonlari uni tashkil etishning yanada samarali bo'ladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Muammoli jarayonlarni o'rganishni birinchi o'ringa chiqarish, uning bosqichli asoslarini shakllantirish borasida muayyan tizim hosil qilish innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Ta'limni barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad – ta'limda samaradorlikka erishish, istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sub'ektlari manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Belgilangan maqsadlarga erishish va kutilgan natijani olish – olib borilgan ishlar samaraliligini baholashning oliy mezonidir. Shu bilan birga ta'lim jarayoni samaradorligini baholash nihoyatda murakkab ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki, ta'limda makon va zamon nuqtai nazari bilan berilayotgan amaliy takliflarni hayotga joriy etish uchun sub'ektlarning mavjud resurslari va imkoniyatlari chegaralangan bo'lishi mumkin. Lekin, mavjud shartsharoitlardan foydalanib bu vazifalarni amalga oshirish ma'lum soha, qolaversa ta'limni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar haqidagi bilimlar holati izlanishlarning turli yullari va rejalarini yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish uslublarini tanlash bilan bir qatorda ushbu bosqichning ajralmas tarkibiy qismi - qoidalar va tadbirlarni belgilash, turli texnologiyalar va bilish usullarini qo'llashni tartibga keltiruvchi harakatlar ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog'liq. Bunday qoidalar ta'lim jarayonini tashkil etishga hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga xizmat qiladi [3]. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Berilayotgan ma'lumotlarning aniqligiga;
- Ta'lim mazmunining tushunarligiga;
- Ta'limga qo'yilgan maqsadlarga;

- Ta'limdagi muammolarni aniqlash va yechimini toppish;
- Ta'limda natijaviylikga erisha olish;
- Ta'lim jarayonidagi mavjud texnologik, ilmiy-texnik ishlanmalar, aniq faktlar bilan bog'liq resurslarga tayanish.

Jamiyatda ta'limga bo'lgan ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatni yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlik kasb etuvchi, unga yangicha mazmun baxsh etishi mumkin bo'lgan ta'lim faoliyati bugungi kunning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tabiiy ravishda uni olib borish uchun pedagogik fanlar yutuqlaridan samarali va unumli foydalanish vazifasi ta'lim jarayonida tegishli texnologiyalarni qo'llash va undan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim texnologiyalari – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayonlari vositalari, shakl va metodlari majmui hisoblanadi. Ta'lim materiallarini tanlash, qayta ishlab buyurtmachi sub'ektlarning kuchiga, xususiyatlariga moslab mazmuni, shakli va hajmini aniqlashtirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Ta'lim texnologiyalari ta'limning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlar asosida ta'lim jarayonlari, ta'limning mazmunini, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyalari – talabalarga bilim va ko'nikmalar bilan bog'liq vazifalarni hal qilish imkonini beradigan muayyan bilimlar va ko'nikmalar majmuasidir [4]. Ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi ta'lim bilan bog'liq ishlarni loyihalashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ta'limga texnologik yondashuv mazkur jarayonlarni aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Texnologik yondashuv turli ta'lim sohalarini konseptual va loyihali tahlil etish, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq muammolarni yechishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ta'lim jarayonini olib borish texnologiyalari ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan

natijalarga erishishni ta'minlovchi ta'lim jarayonining barcha bosqich, qismlari va vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lim jarayonlarini tashkil etish texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, bu ta'limni olib borishga puxta loyiha ishlab chiqish va uni o'tkazish va yakuniga yetkazish jarayoniga katta turtki beradi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'quv va tarbiyaviy ishlanmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, nazariy asoslarga ega bo'lmasdan, muammoviy izlanishlarni olib borish mumkin emas. Ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalar nazariyasi va uni o'quv jarayonlarida qo'llashni anglab yetish, uni istiqbollarni aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 25 yanvar №19 (7521).
3. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
4. Alibekov, D. (2021). SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYA SISTEMY OBRAZOVANIYA. Jurnal muzıki i iskusstva, 2(2).